

MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA MOSLASHTIRISH BOSQICHLARI

Xakimova Nasiba¹

Guliston davlat universiteti

KEYWORDS

mehribonlik uyi, oilaviy hayot, ijtimoiy moslashuv, psixologik tayyorgarlik, mustaqil yashash, qadriyatlar, tarbiyaviy bosqichlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada mehribonlik uylarida voyaga yetayotgan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularni mustaqil yashashga moslashtirish bosqichlari tahlil qilinadi. Tarbiyalanuvchilarda oilaviy qadriyatlar, mas'uliyat va ijtimoiy rollarni shakllantirish mexanizmlari, psixologik va ijtimoiy moslashuvda qo'llaniladigan samarali strategiyalar bayon etiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15757259](https://doi.org/10.5281/zenodo.15757259)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mustaqillik yillarida fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mazkur sohaning davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi esa jamiyatda bozor, ishlab chiqarishga asoslangan ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan va ijtimoiy munosabat mazmunida raqobat yetakchi o'rin egallayotgan mavjud sharoitda fuqarolarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratdi. O'tish davrida moddiy jihatdan kam ta'minlangan aholi qatlamini ijtimoiy jihatdan muhofazalash boshqaruvda demokratik va insonparvarlik tamoyillariga amal qiluvchi davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligiga O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ham alohida urg'u beriladi. Chunonchi, "Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi".

Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan "Inson qadri uchun" tamoili asosida Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini patronat tarbiyasiga berish ularga oila muhitiga yaqin sharoit yaratib berish ishlarini tizimli yo'lga qoyish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash, oily ta'limga qamrab olishda davlat kvotasidan tashqari qo'shimcha kvota asosida o'qishga qabul qilish borasidagi say-harakatlari ijtimoiy

¹ Guliston davlat universiteti stajor-o'qituvchisi

sohaning mazkur yo'nalishda katta o'zgarishlarga asos bo'lmoqda.

Mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilari (ota-onasiz qolgan yoki ular bilan aloqani yo'qotgan yoshlar) jamiyat va davlat tomonidan alohida ijtimoiy muhofazalanishga muhtoj sub'ektlar sanaladilar. Ularning "ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda". Mavjud sharoitda davlat tomonidan ularni ijtimoiy jihatdan muhofazalash yo'lida keng ko'lamli amaliy harakatlar tashkil etilmoqda. Biroq "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilariga ta'lim-tarbiya berish, ularning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga davlat tomonidagina g'amxo'rlik qilinishi yetarli emas. Ularning taqdiri uchun jamiyatning har bir a'zosi ma'sul bo'la olishi zarur. Shunday ekan, "Mehribonlik uylari"ning tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda davlat bilan birga keng jamoatchilikning ishtirokini ta'minlashga erishish zamonaviy pedagogika va psixologiya oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Angliyalik psixolog olim R.Bernis onalik mehriqga tashnalikni tahlil qila turib, shunday deb yozadi: Salbiy (dalilsiz) men konsepsiyasining rivojlanishi va hissiz tajavuzkorlik bolaning ota-onalarga va ota-onalik rolini bajaruvchi kishilarga nisbatan qopolligi natijasidir. Bolada xech kimga qo'shilmaslik odamovilik, tundlik xissi paydo bo'la boshlaydi. Bular esa salbiy men konsepsiyasini keltirib chiqaradi. Tajavuzkorlikni keltirib chiqaradigan yana bir sabab: kelisha olmaslik. qarama-qarshilik anik bir to'xtamga kela olmaslik kabilar. tarbiyalanuvchilarga keyinchalik doimiy salbiy hissiyotlarning shakllanishiga olib keladi - deb ta'kidlagan.

A.Freyd o'z ilmiy izlanishlarida bolaning onasidan ajratib tarbiyalash jarayoni bolaning ruhiy holatini izdan chiqishiga sabab bo'lishini ko'rsatib o'tadi. Oilada o'z onasini eslay oladigan bolalar (kichik guruhlarda) o'z onasini tez-tez qumsab turadi, uzoq vaqtgacha uchrashmaslik esa salbiy hissiyotlarning namoyon bulib borishiga sabab bo'ladi deb ta'kidlagan.

Ajralish masalalari boyicha Yevropaning eng mashxur mutaxassisi G.Figdor o'z qarashlarida ota-onasini yo'qotish bolada "Men" ni identifikatsiya qilish bilan bog'liq buzilishlarni keltirib chiqarishi haqida mulohazalar yuritgan.

Amerikalik olim "Men va jamiyat" konsepsiyasining muallifi E.Erikson o'zining qarashlarida bola rivojlanishi tog'ri chiziqda ketishi eng avvalo dastlabki davrlarda bolaga bo'lgan iliq emotsional munosabatlar, bolaning mehrga bo'lgan ehtiyojlarini qondirilishiga bog'liqligini ta'kidlab o'tadi.

Yuqoridagi fiklardan ko'rinib turibdiki, ota-onasi mehridan bebahra ulg'ayayotgan bolalarning shaxsiyatida ziddiyatlar paydo bo'lib dastlab bu ziddiyat ichki (shaxsiy) keyinchalik esa jamiyatga kirishib ketish bilan bog'liq (ijtimoiy) ni yuzaga keltirib chiqaradi. Aynan mehriqning yetarli bo'lmasligi, yoki adovatli dunyo manzarasi bolada shu muhitga moslashish jarayonida bazal tashvishni (asosiy tashvish) keltirib chiqarishi haqida K.Xorni o'zining qarashlarida ifodalab bergan.

Shunday qilib mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarning aksariyatida asosiy

ehtiyojlar (K.Xorni bo'yicha) yetarlicha qondirilmaydi, bu esa o'z navbatida shaxs identifikatsiyasida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqadi, bu esa ijtimoiylashuv jarayonida qator to'siqlarda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.Xaydarov.Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsining individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari-nomzodlik dissertatsiyasi.Toshkent-1996
2. Z.Nishonova va boshqalar.Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya.Toshkent-2018
- 3.Гельмут Фигдор, «Беды развода и пути их преодоления»: Московский психолого-социальный институт; Москва; 2006